



UDK:324

Umida NURIYEVA,

Mustaqil izlanuvchi, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nurievaumida62@gmail.com

PhD, dotsent G'.Otamurodov taqrizi asosida

UMUMTA'LIM MUASSASASI RAHBARLARINING MA'NAVY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishning metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda rahbarning ma'naviy yetukligini rivojlantirishda insonparvarlik, kompetensiyaviy, qadriyatlarga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlarning o'zini ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, rahbarning halollik, adolat, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishning ta'lim muassasasi boshqaruvi samaradorligi hamda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari umumta'lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida ma'naviy yetakchilikni rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, ma'naviy qiyofa, qadriyatlarga asoslangan boshqaruv, refleksiv yondashuv, ma'naviy fazilatlar, pedagogik liderlik.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ОБЛИКА РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация

В данной статье проанализированы методологические основы формирования духовно-нравственного облика руководителей общеобразовательных учреждений. На основе научных источников раскрыта роль гуманистического, компетентностного, ценностно-ориентированного и рефлексивного подходов в развитии духовной зрелости руководителя. Кроме того, обосновано значение развития таких духовно-нравственных качеств руководителя, как честность, справедливость, ответственность и патриотизм, в повышении эффективности управления образовательным учреждением и формировании здоровой духовно-нравственной среды. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования методологических подходов, направленных на развитие духовного лидерства в процессе подготовки и повышения квалификации руководителей общеобразовательных учреждений.

Ключевые слова: образовательный менеджмент, духовно-нравственный облик, ценностно-ориентированное управление, рефлексивный подход, духовно-нравственные качества, педагогическое лидерство.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR FORMING THE MORAL CHARACTER OF LEADERS OF GENERAL EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article analyzes the methodological foundations for forming the moral character of leaders of general education institutions. Based on scientific literature, it examines the role of humanistic, competency-based, values-based, and reflective approaches in fostering the moral maturity of educational leaders. Furthermore, the study substantiates the importance of developing such moral qualities as honesty, justice, responsibility, and patriotism in improving the effectiveness of educational institution management and creating a healthy moral environment. The findings contribute to the improvement of methodological approaches aimed at strengthening moral leadership in the training and professional development of leaders of general education institutions.

Keywords: educational management, humanistic approach, competency-based approach, values-based management, reflective approach, moral qualities, educational leadership.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida umumta'lim muassasasi rahbarining kasbiy salohiyati bilan bir qatorda uning ma'naviy qiyofasi ham ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar rahbarlardan nafaqat zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini, balki yuksak axloqiy fazilatlar, insonparvarlik, mas'uliyat, halollik va milliy qadriyatlarga sodiqlikni ham talab etmoqda. Shu bois rahbarlarning ma'naviy qiyofasini ilmiy-metodologik asosda shakllantirish masalasi pedagogika va ta'lim menejmentining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur maqolada umumta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishning metodologik asoslari ilmiy adabiyotlar va zamonaviy

pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, insonparvarlik, kompetensiyaviy, qadriyatlarga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlarning mazmuni yoritilib, ularning rahbarning kasbiy faoliyati va ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Mazkur yondashuvlar ta'lim muassasasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim metodologik asosi sifatida baholanadi.

Umumta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish metodologik jihatdan avvalo uzluksiz ta'lim-tarbiya g'oyasiga tayangan holda yondashilganda ilmiy asoslanadi. M.Hamdanova "Ma'naviyat asoslari" [3] o'quv qo'llanmasida ma'naviy rivojlanishning markazida insonparvarlik tamoyili turishi, uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini

insonparvarlashtirish esa ta'limning inson qobiliyatlarini ochishi hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarni ustuvor qilishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Muallif fikriga ko'ra, ta'lim jarayonida bilim berish bilan birga tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va shaxs qiyofasini shakllantirish bir butun jarayon bo'lib, bunda "bilimning hajmi"dan ko'ra uni shaxsiy sifatlar va mustaqil tasarruf etish uquvi bilan uyg'unlashtirish muhimdir.

Mazkur yondashuv rahbarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga metodologik "tayanch" bo'ladi: ya'ni rahbar faoliyatini faqat boshqaruv amaliyoti emas, balki maktabdagi insonparvar ta'lim-tarbiya muhitini ta'minlashga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayon sifatida ko'rish zarur. Hamdamova uzluksiz ta'limni inson butun hayoti davomida oladigan, bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan "umrluk jarayon" sifatida talqin etadi; bu esa rahbar ma'naviyatini ham uzluksiz professional-madaniy rivojlanish (doimiy yangilanish, ma'naviy tarbiya tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish) orqali shakllantirish g'oyasini kuchaytiradi. Natijada, rahbar ma'naviy qiyofasi ta'lim muassasasida axloqiy meyorlar, inson qadr-qimmat, halollik, vatanparvarlik, iffat va sharm-hayo kabi qadriyatlarni boshqaruv va tarbiya amaliyotiga singdirish orqali real pedagogik natijalarga aylanishi mumkin.

Ta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy qiyofasi kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlar, boshqaruv madaniyati va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligi asosida shakllanadi [1].

B.X. Karimova bugungi amaliyotda rahbar kompetentligiga oid ayrim kamchiliklar: maktablardagi boshqaruv ishlarining talab darajasida emasligi, fidoyilik va ijodkorlikning yetishmasligi, huquqiy madaniyat savodxonligining pastligi, adolatlilik va halollik kabi fazilatlar yetarli darajada namoyon bo'lmashligi, mahalliylik/urug'-aymoqchilik kabi omillarning ustuvor yo'nalishga chiqishi, metodik birlashmalarga e'tiborning sustligi, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning yo'qligi, jamoa ishlarini noto'g'ri taqsimlash va nazoratning pastligi kabi holatlar uchrashi mumkinligini ko'rsatadi [2]. Bu dalillar ma'naviy qiyofani shakllantirishga maqsadli metodik yondashuv zarurligini, ya'ni rahbar shaxsida ma'naviy sifatlarini shakllantirish jarayonini boshqaruvning

rejalashtirilgan, nazorat qilinadigan va rivojlantiriladigan tizimiga aylantirish kerakligini ko'rsatadi.

Umum ta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalasi pedagogika, ta'lim menejmenti va rahbarlik kompetensiyalari yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Ilmiy manbalarda rahbarning ma'naviy qiyofasi kasbiy kompetentlik, axloqiy qadriyatlar, pedagogik madaniyat hamda shaxsiy namuna ko'rsatish kabi omillar bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Pedagogik mahoratga oid tadqiqotlarda rahbarning ma'naviy yetukligi ta'lim sifati va jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilgan [4].

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino asarlarida rahbar va pedagog shaxsining adolat, halollik, bilimdonlik, mas'uliyat hamda insonparvarlik kabi fazilatlarini ta'lim-tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim mezon sifatida talqin etilgan. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda esa ushbu qarashlar kompetensiyaviy yondashuv, qadriyatlarga asoslangan boshqaruv hamda ma'naviy liderlik konsepsiyalari bilan boyitilib, ta'lim muassasasi rahbarining professional faoliyatida metodologik asos sifatida qaralmoqda.

Ta'lim menejmenti sohasidagi zamonaviy yondashuvlarda rahbarning ma'naviy qiyofasi pedagogik qo'llab-quvvatlash, refleksiya, empatiya, qadriyatlarga asoslangan boshqaruv hamda shaxsiy namuna orqali rivojlantiriladigan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. Bunda rahbarning mas'uliyat, halollik, bag'rikenglik, adolat va o'zini o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan fazilatlarini ta'lim muassasasida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi [5].

Umumta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy qiyofasi turli metodologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rahbarning ma'naviy yetukligini ta'minlashda insonparvarlik, kompetensiyaviy, qadriyatlarga asoslangan, refleksiv va uzluksiz rivojlanish yondashuvlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlarning mazmuni va ularning rahbarlik faoliyatidagi amaliy ahamiyati 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Umumta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishning metodologik asoslari

№	Metodologik yondashuv	Asosiy mazmuni	Rahbar faoliyatidagi amaliy natija
1	Insonparvarlik yondashuvi	Shaxs qadr-qimmat, adolat va hurmat tamoyillariga tayanish	Ta'lim muassasasida sog'lom ma'naviy muhitni yaratish
2	Kompetensiyaviy yondashuv	Kasbiy bilim, boshqaruv ko'nikmalari va ma'naviy fazilatlarini uyg'un rivojlantirish	Samarali va mas'uliyatli boshqaruvni ta'minlash
3	Qadriyatlarga asoslangan yondashuv	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni boshqaruv faoliyatiga integratsiya qilish	Halollik, vatanparvarlik va mas'uliyatni mustahkamlash
4	Refleksiv yondashuv	Rahbarning o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishi va baholashi	O'zini-o'zi rivojlantirish va boshqaruv sifatini oshirish
5	Pedagogik qo'llab-quvvatlash	Mentorlik, hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish	Jamoada ijobiy psixologik muhit va hamkorlikni rivojlantirish
6	Shaxsiy namuna yondashuvi	Rahbarning axloqiy fazilatlarini bilan jamoaga o'rnatish	Pedagoglar va o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish
7	Uzluksiz rivojlanish tamoyili	Ma'naviy va kasbiy kompetensiyalarni doimiy takomillashtirish	Zamonaviy boshqaruv talablariga mos liderlikni shakllantirish

Manba: Muallif tomonidan Hamdamova (2008), Karimova (2023), Xolbo'tayeva (2024) va Lappo (2019) ilmiy manbalari asosida tuzildi.

Umumta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish tizimli metodologik yondashuvlarni uyg'un qo'llashni talab etadi. Ilmiy manbalar tahlili asosida

mazkur jarayonning asosiy metodologik yondashuvlari, rahbarning ma'naviy fazilatlarini hamda ularning boshqaruv faoliyatidagi natijalari 1-rasmda umumlashtirilgan.

1-rasm. Umum ta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishning metodologik asoslari



Umumta'lim muassasasi rahbarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish masalasi rahbarlikni "boshqarish"dan ko'ra keng ma'noda – menejment madaniyati va yetakchilik (liderlik)ning axloqiy-psixologik, ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarini uyg'unlashtirgan jarayon sifatida talqin etishni talab qiladi. Lider muayyan mikromuhitda guruhlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishi, rahbar esa ijtimoiy tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtirib, vakolatlari hamda qaror qabul qilish tizimi bilan ajralib turishini ko'rsatadi. Bu yondashuv rahbarning ma'naviy qiyofasi faqat shaxsiy fazilatlar yig'indisi emas, balki rasmiy mas'uliyat va ijtimoiy institut vazifasini bajarishga tayangan professional yetakchilik ekanini anglashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumta'lim muassasasi

rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish insonparvarlik, kompetensiyaviy, qadriyatlarga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi asosida samarali amalga oshiriladi. Ushbu metodologik yondashuvlar rahbarning kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda halollik, adolat, mas'uliyat, vatanparvarlik va shaxsiy namuna kabi ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, rahbarning ma'naviy qiyofasi ta'lim muassasasida sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirish, jamoani samarali boshqarish va ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Shu bois ta'lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida ma'naviy yetakchilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Nuriyeva U.B. Ta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish // Respublika konferensiya (ilmiy-amaliy anjuman) maqola va tezislari to'plami: "Milliy iqtisodiyotni barqaror saqlashda "yashil iqtisodiyot", "yashil moliya", "yashil buxgalteriya" va ilg'or muhandislik maktablarini ilmiy-amaliy integratsiyalashtirish dolzarbligi". – 2025. – 30-may. – B. 708–710. – DOI: 10.5281/zenodo.21509553. – URL: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21509553>
2. B.X.Karimova. Ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati. Pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish // Oriental Renaissance. – 2023. – 3-j. (4-son). – Apr. 918-924.
3. M.Hamdova. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiya- lashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). T., «Fan va texnologiya», 2008,224 bet.
4. D.U.Xolbo'tayeva. Pedagogik mahorat. – Toshkent: "Science and Innovation", 2024. – 244 b.
5. Lappo V. Theoretical and Methodological Principles of Formation of the Spiritual Values of Students in the Conditions of Higher Education Institution // Future Human Image. – 2019. – Vol. 11. – P. 42–55. – DOI: 10.29202/fhi/11/5. – URL: <https://doi.org/10.29202/fhi/11/5>